

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2025, № 6 (12)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2025

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхужаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобоқулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари номзоди, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
тарих фанлари доктори (DSc)
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби

Сиддиқов Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиязарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳаммадовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Abduraxmonova Kamolaxon Ravshanjon qizi TIBBIYOT ANTROPOLOGIYASI DOIRASIDA BEMORLARNING KASALLIKLAR JARAYONIGA BO‘LGAN QARASHLARINI TAHLIL QILISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	5
2	Artikov Ulug‘bek Latifjon o‘g‘li BO‘Z RANGLI SOPOL IDISHLARNING KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISHI	12
3	Askarov Ollabergan Ikrom o‘g‘li FARG‘ONA VODIYSI SO‘NGI BRONZA-ILK TEMIR DAVRI TARIXI PALEOBOTANIK MATERIALLARDA AKS ETISHI	24
4	Бахранов Шерзад Таштурсунович СОВЕТ ХУКУМАТИ ТОМОНИДАН ЎЗБЕКИСТОН ССР ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ СОҲАСИДАГИ ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТ ВАЗИФАЛАРИНИ ҲАЛ ҚИЛИШ MASALASI ТЎҒРИСИДА	36
5	Mo‘ydinov Doniyorjon Avazbek o‘g‘li AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI DARYO KECHUVLARI TARIXSHUNOSLIGIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR	55
6	Normurodov Dilmurod Raxmatullyevich KITOB TUMANIDAGI SANGANAK (MAKRID) SOY HAVZASIDA OLIB BORILGAN YANGI ARXEOLOGIK QIDIRUV ISHLARI NATIJALARIDAN	60
7	Norova Dildora Radjabovna BOSH KIIYIMLARI VA ULARDAGI ZARDO‘ZLIK SAN’ATINING O‘ZIGA XOSLIGI	76
8	Nosirova Dlrabaxon Ikromjon qizi KORONAVIRUS PANDEMIYASI VA UNING TA’SIRIDA OVQATLANISH MUASSASALARI FAOLIYATIDAGI O‘ZGARISHLAR	84
9	Облобердиев Жасурбек Косим угли КОНТАКТНАЯ И ЭНДОГЕННАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ ТРАДИЦИОННОГО ГОСУДАРСТВА: БУХАРА ПРИ МУЗАФФАРЕ И АБДУЛАХАДЕ	90
10	Priniyazov Jetkerbay Adilbayevich QIZIL ANGOBLI SOPOL IDISHLARNING QO‘QON SHAHRINING YOSHINI ANIQLASHDAGI O‘RNI	100
11	Qulboyev Nishonboy Sobur o‘g‘li SANGZOR HAVZASINING TOG‘-OLDI HUDUDLARIDA ANIQLANGAN YANGI YODGORLIKLARNING LANDSHAFT-XO‘JALIK TIZIMI	110
12	Муминов Алишер Гаффарович., Эрназаров Шермухаммад Эшбекович ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ТАРИХ ФАКУЛЬТЕТИ ДЕКАНЛАРИ ФАОЛИЯТИГА ЧИЗГИЛАР	120

13	Рахимова Ирода Халимовна МЕЖДУНАРОДНАЯ ОБСТАНОВКА И ЕВРОПЕЙСКИЕ МИССИИ В ОСМАНСКОЙ ИМПЕРИИ: ГЕРМАНИЯ И ВЕЛИКОБРИТАНИЯ (XIX В.)	134
14	Саидова Шахноза Шахназаровна УЧАСТИЕ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ НЕКОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ В РЕАЛИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОГРАММ УЗБЕКИСТАНА	143
15	Tuxtabekov Kozimbek Azimbekovich “ULUS” ATAMASINING KELIB CHIQISHI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI	160
16	Унгарова Ойдин Кобулжон кизи ИСТОРИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ С 1991 ПО 2023 ГОДЫ: ПРОБЛЕМЫ И ДОСТИЖЕНИЯ	168
17	Xakimova Shoira Sag‘dullayevna O‘ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI MANBALAR DOIRASIDA SHAMOL ENERGIYASIDAN FOYDALANISH TARIXI	176
18	Ҳамраев Суннатилло Аллабердиевич БУХОРО АМИРЛИГИГА РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ТОМОНИДАН ЮБОРИЛГАН А.Ф. НЕГРИ МИССИЯСИ ТАРИХШУНОСЛИГИ	184
19	Xolliyev Azizbek Go‘zalovich XIX ASRDA JAHON TEMIR YO‘L QURILISHI: ASOSIY YO‘NALISHLAR VA TENDENSIYALAR	195
20	Xolikulov Axmadjon Boymaxammatovich BUXORO AMILIGINING QO‘QON XONLIGI BILAN MUNOSABATLARI	208
21	Xomitov Ravshan Xomitovich MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MILLIY OZCHILIK HUQUQLARINING TA‘MINLANISHI MASALASIGA OID	221
22	Шакиров Ильяс Рахимзянович КУЛЬТУРНО-ГУМАНТАРНЫЕ СВЯЗИ УЗБЕКИСТАНА И ФИЛИППИН: ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАП	229
23	Эргашев Хусан Юсуп ўғли ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ТАРИХ ФАКУЛЬТЕТИНИНГ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ ЛОЙИҲАЛАРДАГИ ИШТИРОКИ (TACIS-TEMPUS МИСОЛИДА)	237
24	Eshkuvatov Bobir Valikul o'g'li GLOBALLASHUV TENDENSIYALARI VA UNING DINIY-MAFKURAVIY HAYOTDA NAMOYON BO‘LISHI	242

Priniyazov J. A.

Milliy arxeologiya markazi tayanch doktoranti
 O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi
jetkerpriniyazov@gmail.com

QIZIL ANGOBLI SOPOL IDISHLARNING QO'QON SHAHRINING YOSHINI ANIQLASHDAGI O'RNI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada qizil angobli sopol idishlarning Qo'qon shahrining yoshini aniqlashdagi ilmiy ahamiyati arxeologik hisobotlar va mavjud ilmiy adabiyotlar asosida batafsil tahlil qilinadi. Tadqiqot avvalo Qo'qon shahrining qadimiy manbalarda tilga olinishi, uning karvon yo'llari chorrahasida joylashgan markaz sifatida shakllanganini ko'rsatuvchi tarixiy ma'lumotlarni yoritadi. Shundan so'ng Mo'yi Muborak va Tepaqo'rg'on yodgorliklarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar, qatlamlardan aniqlangan qizil angobli sopol majmualarining xronologik jihatlari tahlil qilinadi. Ushbu sopollar shakllari, angob sifati va texnologik belgilariga ko'ra Eski Axxi majmualariga yaqinligi bilan ajralib turadi. Tahlil natijalari qizil angobli sopol buyumlarning Qo'qon hududida qadimgi davrdan kulolchilik mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Qo'qon shahri, qizil angobli sopol idishlar, Mo'yi Muborak yodgorligi, Tepaqo'rg'on yodgorligi, Farg'ona vodiysi.

KIRISH

Farg'ona vodiysining janubi-g'arbiy qismidagi qadimiy daryolardan biri So'x daryosi bo'lib, uning havzasi tarixiy-geografik nuqtai nazardan muhim ahamiyatga ega hisoblangan. Daryo Qo'qonsoy mikrovohasining shakllanishida muhim rol o'ynagan bo'lib, bu hududda sug'orma dehqonchilikning rivojlanishiga asos bo'lgan. Eramizdan avvalgi III asrning ikkinchi yarmi – II asr boshlarida So'x havzasida sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi tufayli jadal shaharsozlik jarayonlar ro'y berib, manzilgohlar soni keskin o'sgan[14: 45]. Keyinchalik, ushbu mikrovohada eramizdan avvalgi II asrning oxiri – I asrda hozirgi Mo'yi Muborak va Tepaqo'rg'on yodgorliklari o'rnida shahar tipidagi qo'nalg'alar shakllanadi. Shu asosda eramizdan avvalgi I asrning oxirida Tepaqo'rg'ondagi shaharlashgan qo'nalg'a kengayib, Qo'qon shahriga asos solinadi. Bu yerda ishlab chiqarilgan sopol idishlar kulollik charxida tayyorlangan bo'lib, o'zining yuqori sifati bilan ajralib turgan[13: 352].

Katta Farg'ona kanali qurilishi davrida So'x havzasida M. E. Masson boshchiligidagi arxeologik ekspeditsiyasi va Y. G. G'ulomov rahbarligidagi 3-otryad tomonidan arxeologik tadqiqotlar olib borilib, hududda qadimgi va o'rta asrlarga oid yodgorliklar qayd etilgan edi. Shunga qaramay, Qo'qon shahrining o'zida arxeologik yodgorliklar aniqlanmagani sababli uning qadimgi tarixiy bosqichlari uzoq vaqt davomida ilmiy tadqiqotlarda o'rganilmagan va bu yo'nalishdagi izlanishlar kechroq boshlangan.

Qizil angob- sopol idishlar sirtiga maxsus tayyorlangan, mayin elangan loy aralashmasining surtilishi natijasida hosil bo'ladigan silliq, zich va suv o'tkazmas qatlamdir. Qizil angob tarkibida temir oksidlari ma'lum miqdorda bo'lib, ular pishirish vaqtida qisman erib, sirtning shishasimon va bir jinsli ko'rinish hosil qilishiga sabab bo'ladi. Manbalarda angoblangan buyumlarning suv singdirish darajasi oddiy sopol buyumlarga nisbatan ancha pastligi qayd etilgan bo'lib, bu texnologiyaning rivojlanganligini ko'rsatadi[11: 37]. Shu bois, qizil angob qadimgi davr kulolchilik texnologiyasining muhim bosqichi sifatida baholanadi.

Qo'qon shahri qadim zamondan hunarmandchilik va savdo markazi sifatida tanilgan bo'lib, uning geografik joylashuvi karvon yo'llari va turli xalqlar madaniy aloqalari chorrahasida bo'lgan. Shu tariqa, qadimiy manbalarda qayd etilgan quyidagi ma'lumotlar Qo'qon shahrining Markaziy Osiyo tarixida erta davrlardanoq muhim markaz sifatida shakllanganini va uning nomi ham turli xalqlarning yozma manbalarida o'z aksini topganini ko'rsatadi.

Xitoy elchisi Chjan Tsyen o'zining O'rta Osiyoga qilgan sayohati haqida hikoya qilgan ekan, Qo'qonni markaziy nuqta sifatida qabul qilgan. U mahalliy aholidan eshitgan rivoyatlarga asoslanib, boshqa mamlakatlarning masofasi va joylashuvini hozirgi Qo'qon shahriga nisbatan yetarli aniqlik bilan ko'rsatgan[7: 154]. Shuningdek Qo'qon shahri ilk o'rta asr xitoy manbalarida Xoxan deb yozilgan[7: 312].

O'rta asr arab sayyohi Ibn Havqal o'zining "Kitob surat al-arz" ("Yer surati kitobi") asarida Mavorounnahr viloyatlari haqida so'z yuritgan ekan, Farg'ona o'lkasiga oid qimmatli ma'lumotlarni beradi. U Xo'jand tomondan Farg'onaga kirilganda uchraydigan shaharlarni sanab o'tib, uchinchi o'rinda Hokand (hozirgi Qo'qon) shahrini tilga oladi. Uning ma'lumotlariga ko'ra, Yuqori Nasyo Farg'onaga Xo'jand tomondan kirilganda uchraydigan birinchi viloyat bo'lib, uning tarkibiga Vonkat, Sóx, Hokand va Rishton kabi shaharlar kirgan[9: 80]. Shuningdek, Qo'qon haqida alohida ma'lumot berib, uni Farg'ona vodiysidagi muhim shahar biri sifatida tilga oladi. Unga ko'ra, Xo'janddan ikki katta mahalla, Axsiketdan esa bir katta mahalla, daryodan esa besh farsax masofada joylashgan edi[9: 289].

X asr arab geografi Istaxriy o'zining "Kitab al-Masalik val-Mamalik" asarida Farg'ona vodiysi shaharlari haqida so'z yuritib, Qo'qonni "Xavakand" deb ataydi. Unga ko'ra, Xavakanddan Axsikatgacha 1 mahalla masofa bo'lgan. Istaxriy bu hududlarni Farg'ona yo'llari tizimi tarkibida tasvirlab, Xavakandni vodiyni muhim markazlaridan biri sifatida tilga olgan[10: 184].

X asrda yozilgan noma'lum muallifning "Hudud ul-'Alam" asarida Qo'qon shahri "Xavakand" nomi bilan keltirilgan bo'lib, u gavjum shaharlar sirasiga kiradi[11: 16]. Shu boisdan, bizgacha yetib kelgan qadimiy qo'lyozmalarga ko'ra, Qo'qon shahri arab olimlariga X asrdayoq "Xuvakand" nomi bilan yaxshi ma'lum bo'lgan[6: 6].

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Tadqiqotning natijalari Mo'yi Muborak va Tepaqo'rg'on yodgorliklariga oid ilmiy adabiyotlar, nashrlar va arxeologik hisobotlarda keltirilgan ma'lumotlarni

tahlil qilish asosida keltiriladi. Ushbu asos Qizil angobli sopol idishlar Qo‘qon shahrining dastlabki shakllanish bosqichlarini aniqlashda muhim xronologik mezon sifatida baholash imkonini berdi.

Mo‘yi Muborak yodgorligi ilk bor 1996-yilda tadqiqotchilar G. P. Ivanov va B. X. Matboboevlar tomonidan kichik qazishmalar o‘tkazilgan. Ularning natijalariga ko‘ra, arxitektura majmuasi ostida maydonchali odatiy tepa mavjud ekani ma‘lum bo‘lgan. Tepa maydoni 80x60 metr bo‘lib, g‘arb–sharq yo‘nalishida cho‘zilgan. Uning shimoli-sharqiy burchagida 30x25 metrli “burj” ko‘rinishida tepalik bo‘lib, qolgan balandlik qismi tepaning asosiy qismiga nisbatan 1–1,5 metrga ko‘tarilgan. Umumiy balandlik esa 5 metrni tashkil etadi. Tepaning yuqori qismida musulmon davri qabristoni bo‘lganligi bois, arxeologik razvedka ishlari uchun tepaning g‘arb tomonidagi yonbag‘ir tanlangan. Tadqiqotchilar bu yerda 12,5x2 metr o‘lchamdagi transheya qazishgan. Natijada eng yuqori nuqtadan 150 sm chuqurlikda va yonbag‘ir yuzasidan 60 sm chuqurlikda, transheyani sharqiy tarafidan 3 metr masofada 2 metr kenglikdagi paxsa devorning yuqori qismi aniqlangan. Transheya oxiri bilan devor orasida faqat 1 metr masofa qolgan bo‘lib, u pastga tomon torayadi. Shu sababli transheyani faqat 280 sm chuqurlikkacha qazish mumkin bo‘lgan. Transheyani shimoliy devoridan 50 sm masofada, yuqoridagi paxsa devor bilan aholi maskani ichiga yo‘nalgan ikkinchi devor o‘rtasidagi burchak aniqlangan. Devorning tashqi burchagi vayron bo‘lgani uchun uning aniq qalinligi qayd etilmagan. Devorning ikki tomonidan o‘rtacha zichlikdagi qazilma qatlamlar tutashgan. Ammo 200 sm chuqurlikda, devorning tashqi tomonida, yirik paxsalaridan iborat juda zich qatlam aniqlangan. Ularning zichligi, ehtimol, paxsa devorlar vayron bo‘lganidan so‘ng yuqoridan qandaydir inshoot qurish uchun qo‘yilgan platformaning qoldiqlaridir, degan taassurot uyg‘otadi[8: 12]. Shu o‘rinda ta‘kidlash kerakki, Mo‘yi Muborakni o‘rgangan ilk tadqiqotchilar bu yerdan aniqlangan sopol majmualari davriga aniq ta‘rif berishmagan, faqat, arab bosqini arafasi va XIX–XX asrlarga tegishli idishlar sindiqlari aniqlanganligi xususida ma‘lumotlar berishgan xolos[8: 12].

Mo‘yi Muborak yodgorligidagi keyingi arxeologik tadqiqot Qo‘qon shahar hokimiyatining taklifiga muvofiq, 2007 yil oktabr va noyabr oyining boshlarida O‘zbekiston FA Arxeologiya instituti Farg‘ona ekspeditsiyasining maxsus otryadi Qo‘qon shahrining uzoq o‘tmish tarixini o‘rganishi uchun arxeologik tadqiqotlar olib borgan bilan bog‘liq[2: 15]. A. Anarbayev boshchiligidagi Mo‘yi Muborak yodgorligida olib borilgan ushbu qazishma ishlari natijasida Farg‘ona vodiysi hamda Qo‘qon shahri tarixida sun‘iy sug‘orish tizimining rivojlanishiga oid yangi ma‘lumotlar olindi[3: 68]. Qazishma boshlashdan avval Qo‘qon shahar yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri xizmati yordami bilan Mo‘yi Muborak yodgorligining topografik plani qog‘ozga tushirilgan [1-rasm]. Unda G. Ivanov qazishma olib borgan joy I obyekt, yangi qazishmalar II obyekt va III obyekt deb nomlandi. Obyekt II da 2 ta qazishma bor: 1-qazishma, 2-qazishma. 2-qazishma 1-qazishmaning davomidir [3: 9].

Yodgorlikdagi topilgan qizil angobli sopollar majmuasi eramizdan avvalgi I asr ikkinchi yarmi va I asrdan IV-V asrlargacha bo‘lgan davrlarga oid namunalari topilgan. Mo‘yi Muborak yodgorligining so‘nggi davri so‘nggi o‘rta asrlarga

mansub bo'lib, qadimgi davrdan keyin ushbu hududda uzoq vaqt - ya'ni ming yildan ortiq davr mobaynida yashash izlari kuzatilmaydi. Faqat XVIII–XIX asrlarda bu yerda muqaddas ziyoratgoh tashkil etilgan[2: 26].

A.Anarbayerov boshchiligida olib borilgan yodgorlikdagi stratigrafik qazishmalar natijasida qizil angobli sopol buyumlarning yodgorlikdagi davriy xususiyatlari birinchi bor kompleks tarzda aniqlangan. Ushbu sopollarning texnologik jihatdan yuqori sifatda tayyorlanganligi yodgorlik hududida qadimgi kulolchilik mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Qatlamlar bo'yicha kuzatilgan o'zgarishlar, xususan, yarimsharsimon va konussimon piyolalardan tortib, keyingi davrlarga oid tirnalmali sopol idishlarning paydo bo'lishi, mahalliy kulolchilikning bosqichma-bosqich rivojlanishini aks ettiradi. Qizil angobli buyumlarning Eski Axxi va Yerqo'rg'on majmualari bilan o'xshashligi So'x havzasida shahar madaniyatining shakllanishi keng mintaqaviy jarayonlar bilan bog'liq ekanini tasdiqlaydi. Natijada qizil angobli sopol majmuasi Mo'yi Muborak yodgorligining eng qadimgi davrlarini aniq sanalashda muhim ahamiyat kasb etgan.

Mo'yi Muborak yodgorligida olib borilgan qazishmalar natijalariga ko'ra, qizil angobli sopollar bir necha davriy bosqichlarda izchil o'zgarib borgan. Eng qadimgi qatlamlar II obyektning birinchi qazishmasidagi 16, 14, 10 va shu obyektning ikkinchi qazishmasidagi 17, 15, 14 madaniy qatlamlarida yarimsharsimon va konussimon shakllardagi piyolalar, ichkariga bukilgan og'izli piyolalar, shuningdek, yuqori sifatli tayyorlangan qizil angobli ko'za va ko'zachalar aniqlangan[2-rasm]. Ushbu sopollar N. G. Gorbunovning F II/1 majmuasiga mos kelib, eramizdan avvalgi II–I asrlar hamda I–II asrlarga oid sopollar bilan o'xshashlik qiladi. Shunga o'xshash sopol idishlar Eski Axxi yodgorligidan topilgan bo'lib, eramizdan avvalgi II asr - eramizning I asri bilan sanalanib o'tilgan[1: 177].

Keyingi davr, II obyektning birinchi qazishmasidagi 13 hamda ikkinchi qazishmasidagi 13 va 16a madaniy qatlamlar sopol majmuasida yangi shakllar paydo bo'lgan bo'lib, tirnab chizilgan naqshli tuvaklar bu davrning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi. I asrning ikkinchi yarmi – III asr boshlarida sopollarda yangi shakllar paydo bo'lib, avvalgi davrning sopol idishlari ham turli rangdagi angoblarda davom etgan. V–VI asrlar boshlarida sopol buyumlarning sifati pasaygan bo'lib, aralash majmua tarkibida eski va yangi shakllar birga uchray boshlagan[3: 68]. Shunday qilib, Mo'yi-Muborak yodgorligidagi qizil angobli sopollarning shakllarining o'zgarib borishi va angob sifati pasaygani so'nggi bosqichgacha bo'lgan taraqqiyot jarayonni aks ettiradi. Ushbu izchil o'zgarishlar yodgorlikning davriy bosqichlarini aniqlashda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, qizil angobli sopollar majmuasining eng qadimgi qatlamlarda aniqlanishi Qo'qon shahrining aynan qadimgi davrlarga mansubligini ko'rsatib, ushbu hududning Farg'ona vodiysidagi dastlabki shaharsozlik markazlaridan biri bo'lganini tasdiqlaydi.

Tepaqo'rg'on yodgorligi Qo'qonsoy daryosining chap sohilida, shaharning markaziy qismida joylashgan qadimiy ark va shahriston qoldiqlaridan iborat. Yodgorlik XX asrning 60-yillarigacha qabrston sifatida foydalanilgan va keyingi

qurilishlar tufayli kuchli zarar ko'rgan, masalan janubiy tomonda ikki metr ga yaqin zamonaviy qurilish chiqindilaridan iborat qalin qatlam hosil bo'lgan edi.

Tepaqo'rg'on yodgorligi joylashgan yerda qadimgi Qo'qon shahri shakllanadi va Farg'ona konfederativ davlatlaridan birining poytaxti sifatida ajralib chiqadi. Bu haqda arxitektura qoldiqlari va uzluksiz shahar hayotini aks ettiruvchi to'rtta sopol majmuasi guvohlik beradi. Bu majmualar eramizning dastlabki davr boshidan boshlab to arablar bosqinigacha bo'lgan davrni qamrab oladi[5: 99]. Tepaqo'rg'on yodgorligida arxeologik tadqiqotlar ikki davrda amalga oshirilgan bo'lib, birinchi keng ko'lamli qazishmalar 2009–2011-yillarda o'tkazilgan. Ikkinchi bosqichda esa 2022-yilda qazishmalar davom ettirilib, mudofaa tizimi, burj va arxitektura qoldiqlarining tuzilishi aniqroq o'rganilgan hamda yangi ilmiy tafsilotlar qayd etilgan.

2009–2011-yillarda Tepaqo'rg'onida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar, asosan, Qo'qon shahrining yoshini ilmiy asosda aniqlashga qaratilgan edi. Qazishmalar davomida ark va shahristonning saqlanib qolgan qismlarida tadqiqotlar olib borilib, yodgorlikning shakllanish bosqichlari aniqlab chiqiladi. Topilgan arxeologik materiallar Tepaqo'rg'onning qadimgi davrda vujudga kelib, ilk o'rta asrlarga qadar mavjud bo'lganligini ko'rsatadi.

2009–2011 yillardagi arxeologik qazishmalar davomida Tepaqo'rg'on madaniy qatlamlaridan ko'p miqdorda qizil angobli sopol topildi.

Qizil angobli sopollar asosan sharxda tayyorlangan piyola, kosa, ko'za va qadah kabi sopol idishlardan iborat bo'lib, ular ikki tomonlama zich angob bilan qoplangan va sifatli pishirish hamda ko'plarida yaxshi tozalangan loy xomashyosi bilan ajralib turadi. Umuman olganda, ushbu tadqiqotlarda qizil angobli sopollarni o'rganish orqali Tepaqo'rg'onning shaharsozlik va hunarmandchilik markazi sifatidagi ahamiyatini belgiladi, mahalliy ishlab chiqarish, texnologik rivojlanish va mintaqaviy madaniy aloqalar haqida yangi ilmiy natijalar berdi.

Tepaqo'rg'on yodgorligida olib borilgan ushbu arxeologik tadqiqotlar natijasida jami olti qurilish davri hamda ular bilan bog'liq besh sopol majmuasi aniqlangan. Har bir davr o'ziga xos sopollar majmuasi bilan ajralib turadi. Masalan, I-II qurilish davri sopol majmuasi eramizdan avvalgi I asr – eramizning I asrlarga tegishli ekanligi aniqlangan. Majmuaning asosiy shakllari kosasimon piyolalar, mustaxara, og'zi qismi ichkariga qayrilgan kosalar va boshqalardir. Tepaqo'rg'onning III-V qurilish davrlariga mansub yarimsharsimon, konussimon va kosasimon shakldagi qizil angobli piyolalar, sopol idishlar majmuasi AK-6–AK-8 majmuasi bilan yaqin o'xshashlik qilib, yodgorlikning III–VI asrlar davomida barqaror kulolchilikka ega bo'lganini ko'rsatadi. Oxirgi qurilish davri XVII–XVIII asrlarga oid materiallar bilan ifodalanadi[3: 68].

2022 yilda Tepaqo'rg'on yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar Qo'qon shahrining qadimiy shaharsozlik markazi sifatidagi tarixini yanada chuqurroq o'rganishga qaratildi. Namangan davlat universiteti Arxeologiya kafedrası va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi hamkorligida amalga oshirilgan ushbu qazishmalar davomida yodgorlikning ark qismi, mudofaa tizimi, burjlari va ularni o'rab turgan qatlamlarning tuzilishi aniqlashtirildi. Tadqiqotlar Tepaqo'rg'onning qadimgi

davrda shakllanib, ilk oʻrta asrlargacha uzluksiz yashab kelgan muhim markazlardan biri boʻlganini yana bir bor tasdiqladi[4: 40].

Qazishmalar jarayonida yuqori qatlamlarning keyingi asrlardagi qabriston faoliyati hamda qurilish chiqindilari tufayli jiddiy zararlangani maʼlum boʻldi. Shu bois pastki madaniy qatlamlarga tushish uchun katta hajmdagi chiqindi qatlamlari tozalandi. Arkning mudofaa devorlari, soqchilar burji, ularga tutash xom gʻisht devorlar, 50x50 metr oʻlchamdagi ichki qism va ikki qatorli mudofaa chizigʻi aniqlandi[4: 40]. Bu maʼlumotlar Tepaqoʻrgʻon arkining shakllanishi, qurilish bosqichlari va shaharsozlik tizimini oʻrganishda muhim ilmiy manba boʻlib xizmat qiladi.

2022 yilgi tadqiqotlarning eng muhim natijalaridan biri qadimgi va ilk oʻrta asrlarga oid qizil angobli sopol buyumlarning koʻplab topilganidir. Qizil angobli sopollar odatda yuqori sifatli loydan tayyorlanib, maxsus qizil rangli angob bilan qoplangan boʻlib, ular oʻsha davrning texnologik rivojini, hunarmandchilik va madaniy aloqalarini oʻrganishda alohida ahamiyatga ega. Umuman olganda, 2022-yilgi arxeologik tadqiqotlar Tepaqoʻrgʻon yodgorligining shahar arki, mudofaa tizimi, madaniy qatlamlari va hunarmandchilik mahsulotlarini oʻrganishda yangi ilmiy maʼlumotlar berdi. Topilgan materiallar, jumladan, qizil angobli sopollar, yodgorlikning qadimgi davrdan boshlab shakllangan murakkab tarixiy va madaniy taraqqiyotini ilmiy asosda yoritib berishga xizmat qilmoqda.

XULOSA

Arxeologik tadqiqotlar Qoʻqon tarixining ikki ming yildan ortiq davrni oʻz ichiga olishini koʻrsatadi. Qoʻqonsoy vohasida sugʻorma dehqonchilikning rivojlanishi tufayli miloddan avvalgi II–I asrlar oxirida Moʻyi Muborak va Tepaqoʻrgʻon ilk shahar manzilgohlari shakllangan. Aynan shu manzilgohlar qadimgi Qoʻqonning dastlabki markazlari hisoblanadi.

Moʻyi Muborak yodgorligining quyi qatlamlarida aniqlangan qizil angobli idishlar Eylatan va Eski Axsi sopol majmualari bilan mos kelishi aniqlangan. Qiyosiy tahlil qilinib, Moʻyi Muborak I sopol majmuasi eramizdan avvalgi II asrning ikkinchi yarmi yoki oxiri – I asr boshlariga mansub ekanligi aniqlangan. Yodgorlikda shu tariqa VI asrgacha hayot davom etgan.

Tepaqoʻrgʻon yodgorligida esa olti qurilish davri aniqlangan boʻlib, ular bilan bogʻliq beshta sopol majmuasi qayd etilgan. Eng quyi qatlamlar - Tepaqoʻrgʻon I eramizdan avvalgi I asr -eramizning I asrga tegishli boʻlib, VI asrgacha hayot davom etgan. Ikki yodgorlikda ham hayot ming yildan ortiq vaqt davomida tiklanmagan. Soʻngi oʻrta asrlarga kelib (XVII-XVIII asrlar) hayot qayta tiklangan. Tadqiqot natijalarida Moʻyi Muborak va Tepaqoʻrgʻon yodgorliklaridan topilgan qizil angobli sopol idishlar Qoʻqon shahrining shakllanish bosqichlarini aniqlashda ahamiyati yuqori boʻlganligini koʻrishimiz mumkin. Sopol idishlardagi taraqqiyot oʻzgarishlariga qarab ikki yodgorlikda qatlamlarni davrlashtirishga imkon yaratganini bildiradi. Sopol idishlar majmualarining Fargʻona vodiysidagi boshqa qadimgi markazlar bilan oʻxshashligi Qoʻqon hududida qadimgi davrdan kulolchilik shakllanganini hamda shahar rivojining boshlanganini tasdiqlaydi.



1-rasm. Mo‘yi Muborak yodgorligining topografik plani



Mo‘yi Muborak yodgorligi arxeologik qazishmalarida topilgan qizil angobli sopol idishlar

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Анарбаев А. А. Ахсикент в древности и средневековье (итоги и перспективы исследования) // *Советская археология*. № 1. Москва, 1988. С. 174–187.
2. Анарбаев А. А., Насриддинов Ш., Рахимов К., Саидов М., Юлдашев И. Қўқон шаҳри қадимги тарихини ўрганиш учун 2007 йилда олиб борилган археологик тадқиқотлар // *Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар 2008–2009 йиллар*, 7-сон. Самарқанд, 2012. Б. 7–26.
3. Анарбаев А., Саидов М. М., Сайфуллаев Б. К. *Археологические исследования в г. Коканде и его окрестностях*. Самарқанд, 2014. – 134 с.
4. Анарбаев А. А., Кубаев С. Ш., Оманов Ш. А., Пардаев М. 2022 йили Қўқон шаҳри Тепақўрғон ёдгорлигида олиб борилган археологик тадқиқотлар // *О'zbekistonda arxeologik tadqiqotlar: 2022-yil*. 15-сон. Самарқанд, 2023. 36-40 б.
5. Анарбаев А. А. Древнеземледельческая культура Ферганы и динамика развития урбанизации // *История и археология Турана*. Вып. 3. Самарқанд, 2017. С. 99.
6. Бабабеков Х. Н. *История Коканда*. Ташкент: Фан, 2006. – 243 с.
7. Бичурин Н. Я. (Иакинф). *Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена*. Том II. Москва–Ленинград: Изд-во АН СССР, 1950. – 335 с.
8. Иванов Г. П., Матбабаев Б. Х. *Отчет об археологических работах Ферганского областного краеведческого музея в 1996 г.* Архив Института археологии АН РУз. Ф. 8, О. 1, Д. 165. Самарқанд, 1996. С. 12.
9. Ибн Ҳавқал. *Китоб сураат ал-ард*. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2011. – 400 б.
10. Истахрий. *Китаб ал-Масалик вал-Мамалик (Йўллар ва ўлкалар китоби)*. Тошкент: Фан, 2019. – 338 б.
11. Сайко Э. В. *Техника и технология керамического производства Средней Азии в историческом развитии*. Москва: Наука, 1982. – 200 с.
12. Ҳудуд ул-олам. (*Мовароуннаҳр тавсифи*). Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – 64 б.
13. Anarbayev A. *Axsikent arxeologiya parki*. Toshkent: Fan, 2023. – 384 b.
14. Pardayev M. X. *So'x havzasida antropogen landshaftning tashkil topishi va urbanizatsiya jarayonlari*. Tarix fanlari bo'yicha PhD dissertatsiyasi. Toshkent, 2025. – 130 b.

Приниязов Ж. А.

Базовый докторант Национального археологического центра
Академия наук Республики Узбекистан
jetkerpriniyazov@gmail.com

ЗНАЧЕНИЕ КРАСНОАНГОБИРОВАННОЙ КЕРАМИКИ В ХРОНОЛОГИЧЕСКОМ ОПРЕДЕЛЕНИИ РАННЕГО ГОРОДА КОКАНДА

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится подробный анализ научного значения красноангобированной керамики в определении хронологического возраста города Коканда на основе археологических отчётов и имеющейся научной литературы. Вначале рассматриваются письменные источники, в которых Коканд упоминается как ранний населённый пункт и как центр, сформировавшийся на пересечении караванных путей. Далее анализируются археологические исследования, проведённые на памятниках Мойи Муборак и Тепакурган, с особым вниманием к хронологическим особенностям красноангобированных керамических комплексов, выявленных в стратиграфических слоях. Эти сосуды демонстрируют близкое сходство с комплексами древнего Эски-Ахси по форме, качеству ангоба и технологическим характеристикам. Полученные результаты показывают, что красноангобированная керамика является важным свидетельством существования древних гончарных традиций на территории Коканда.

Ключевые слова: Коканд, красноангобированная керамика, Мойи Муборак, Тепакурган, Ферганская долина.

Priniyazov J. A.

Basic doctoral student at the National Archaeology Center
Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
jetkerpriniyazov@gmail.com

THE ROLE OF RED-SLIPPED POTTERY IN ESTABLISHING THE CHRONOLOGICAL AGE OF THE CITY OF KOKAND

ABSTRACT

This article presents a detailed analysis of the scientific significance of red-slipped pottery in establishing the chronological age of the city of Kokand, drawing upon archaeological reports and existing scholarly literature. The study first examines historical sources that mention Kokand as an early settlement and highlight its emergence as a center located at the crossroads of caravan routes. It then analyzes archaeological investigations conducted at the Moyi Muborak and Tepakurgan sites, focusing on the chronological features of red-slipped ceramic assemblages recovered from stratified layers. These vessels display notable parallels with assemblages from ancient Eski Axxi in terms of their shapes, slip

quality, and technological characteristics. The results demonstrate that red-slipped pottery provides significant evidence for the existence of early ceramic production in the Kokand region.

Keywords: Kokand, red-slipped pottery, Moyi Muborak, Tepakurgan, Fergana Valley.